

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 151 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	

TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY- IQTISODIY JIHATLARI

Qurbonov Jasurbek Pozilovich

Alfraganus University

"Iqtisodiyot" fakulteti dekani

ORCID: 0000-0003-2651-3392

Email: j.qurbonov@afu.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirishning tashkiliy va iqtisodiy jihatlari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida jahon amaliyotida qo'llaniladigan loyiha boshqaruvi metodologiyalari, investitsion loyihalar samaradorligini baholash usullari va to'qimachilik korxonalarining xususiyatlari o'rganilgan. To'qimachilik sanoatining rivojlanish dinamikasi tahlil qilinib, investitsion jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsion loyiha, loyiha boshqaruvi, to'qimachilik sanoati, metodologiya, NPV, IRR, tashkiliy struktura, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This scientific article presents a comprehensive analysis of the organizational and economic aspects of improving investment project management methodology in the textile industry. The study examines project management methodologies used in global practice, methods for evaluating investment project efficiency, and the characteristics of textile enterprises. The development dynamics of the textile industry have been analyzed, and practical recommendations for optimizing investment processes have been proposed.

Keywords: investment project, project management, textile industry, methodology, NPV, IRR, organizational structure, economic efficiency.

Аннотация. В данной научной статье комплексно проанализированы организационные и экономические аспекты совершенствования методологии управления инвестиционными проектами в текстильной промышленности. В рамках исследования были изучены применяемые в мировой практике методологии управления проектами, методы оценки эффективности инвестиционных проектов и особенности текстильных предприятий. Проанализирована динамика развития текстильной отрасли и разработаны практические предложения по оптимизации инвестиционных процессов.

Ключевые слова: инвестиционный проект, управление проектами, текстильная промышленность, методология, NPV, IRR, организационная структура, экономическая эффективность.

KIRISH

To'qimachilik sanoati jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida global yalpi ichki mahsulotning taxminan 2 foizini tashkil etadi [1]. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda jahon to'qimachilik bozori 987,95 milliard AQSh dollariga yetgan bo'lib, 2034-yilga borib 1 407,12 milliard dollarga oshishi prognoz qilinmoqda [2]. Bunday sur'atlar sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalarning samarali boshqarilishini talab etadi.



O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yilning aprel oyidagi bayonotiga ko'ra, so'nggi yetti yil davomida mamlakat to'qimachilik ishlab chiqarishi 4,2 barobar o'sgan, 2023-yilda esa to'qimachilik va tikuvchilik-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish qiymati 8,2 milliard AQSh dollariga yetgan [3]. Shu bilan birga, eksport 3,1 milliard dollarga teng bo'lib, mamlakatning 83 ta davlatga mahsulot yetkazib berish geografiyasi shakllangan [4].

Biroq, to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni boshqarishning mavjud metodologiyalari tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Boston Consulting Group tahlillari ko'rsatishicha, O'zbekiston kamida 15 milliard dollarlik to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va 500 000 yangi ish o'rnini yaratish salohiyatiga ega [5]. Ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish investitsion loyihalarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini ilmiy asoslash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: birinchidan, xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan loyiha boshqaruvi metodologiyalarini tahlil qilish; ikkinchidan, investitsion loyihalar samaradorligini baholash usullarini o'rganish; uchinchidan, O'zbekiston to'qimachilik sanoatidagi investitsion jarayonlarni tahlil qilish; to'rtinchidan, metodologiyani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyiha boshqaruvi nazariyasi XX asrning o'rtalarida mustaqil fan sohasi sifatida shakllana boshlagan. Project Management Institute (PMI) tomonidan 1996-yilda nashr etilgan "A Guide to the Project Management Body of Knowledge" (PMBOK Guide) loyiha boshqaruvining global standarti sifatida e'tirof etilgan [6]. PMBOK metodologiyasi beshta jarayon guruhi (boshlash, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va nazorat, yakunlash) hamda o'nta bilim sohasini o'z ichiga oladi [7].

PMBOK Guide sakkizinchi nashri loyiha boshqaruvining oltita asosiy tamoyilini belgilaydi: yaxlit yondashuv, qiymatga e'tibor, sifatni ta'minlash, mas'uliyatli rahbarlik, barqarorlikni integratsiya qilish va vakolatli jamoalar shakllantirish [8]. Ushbu tamoyillar investitsion loyihalarni boshqarishda strategik qarorlar qabul qilish uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Investitsion loyihalar samaradorligini baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Net Present Value (NPV) yoki sof joriy qiymat metodi kelajakdagi pul oqimlarini joriy qiymatga diskontlash orqali loyihaning umumiy daromadlilikini aniqlaydi [9]. Internal Rate of Return (IRR) yoki ichki rentabellik darajasi investitsiyaning kutilayotgan yillik daromadini foiz sifatida ifodalaydi, bu turli o'lchamdagi loyihalarni solishtirish imkonini beradi [10].

Profitability Index (PI) yoki rentabellik indeksi investitsiya qilingan har bir dollar uchun yaratilgan qiymatni o'lchaydi, bu ayniqsa cheklangan kapital sharoitida loyihalarni tanlashda muhim ahamiyatga ega [11]. Payback Period (PP) yoki qoplash muddati investitsiyaning o'zini qoplash uchun zarur vaqtini ko'rsatadi va likvidlik hamda riskni baholashda oddiy mezon sifatida xizmat qiladi [12].

To'qimachilik sanoatida loyiha boshqaruvi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, to'qimachilik va kiyim-kechak sanoatida mahsulotlar moda zanjiri va kolleksiyalarga bog'liq bo'lib, ular tendensiyalar, bozor spetsifikatsiyalari va profillarga muvofiq o'zgaradi [13]. Shu sababli, har bir yangi kolleksiyaning ishlab chiqilishi alohida loyiha sifatida qaralishi va loyiha boshqaruvi metodologiyasi qo'llanilishi lozim.

Xalqaro amaliyotda gibrid loyiha boshqaruvi yondashuvlari tobora ko'proq qo'llanilmoqda. PMI tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 2020–2023-yillarda gibrid yondashuvlarni qo'llash 20 foizdan 32 foizga oshgan, ya'ni 58 foizlik o'sish kuzatilgan [14]. Bu tendensiya to'qimachilik sanoatida ham ahamiyatli, chunki tarmoq bir vaqtning o'zida rejalashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari va tez o'zgaruvchan bozor talablariga moslashishni talab etadi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida investitsiyalarni boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nisbatan kam. "Uztekstilprom" uyushmasi korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish va samarali boshqarishni tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodologik takliflar ishlab chiqilgan [15]. Biroq, ushbu tadqiqotlar asosan makroiqtisodiy darajada olib borilgan bo'lib, korxona darajasidagi loyiha boshqaruvi metodologiyasini chuqur yoritib bermagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanilgan bo'lib, u tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va iqtisodiy-matematik modellashirish usullarini o'z ichiga oladi. Tizimli yondashuv investitsion loyihalarni boshqarish jarayonini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish va uning tarkibiy qismlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni matbuot xizmati ma'lumotlari, Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistikasi, Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) hisobotlari, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tadqiqotlari, PMI nashriyoti va ITMF (Xalqaro to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari federatsiyasi) tahlillari tashkil etdi.

Investitsion loyihalar samaradorligini baholashda quyidagi formulalar qo'llanildi. Sof joriy qiymat (NPV) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{C_t}{(1+r)^t} - C_0$$

Bu yerda: C_t - t davrdagi pul oqimi, r — diskont stavkasi, C_0 — dastlabki investitsiya. Ichki rentabellik darajasi (IRR) NPV = 0 bo'lgan diskont stavkasi sifatida aniqlanadi [16]. Rentabellik indeksi (PI) quyidagicha hisoblanadi:

$$PI = \frac{\sum_{t=1}^n \frac{C_t}{(1+r)^t}}{C_0}$$

PI > 1 bo'lgan loyihalar samarali hisoblanadi. Qoplash muddati (PP) dastlabki investitsiyani yillik pul oqimiga bo'lish orqali aniqlanadi [17]. Qiyosiy tahlil usuli xalqaro va O'zbekiston amaliyotidagi loyiha boshqaruvi metodologiyalarini solishtirish uchun qo'llanildi. Tahlil jarayonida PMBOK, PRINCE2 va agile metodologiyalarining to'qimachilik sanoatiga mosligi baholandi. Tadqiqot 2017-2024 yillar oralig'ini qamrab oldi, bu O'zbekiston to'qimachilik sanoatida tub islohotlar amalga oshirilgan davrga to'g'ri keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining so'nggi yillardagi rivojlanishi investitsion siyosatning samaradorligini yaqqol ko'rsatadi. 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev xom paxta eksportini to'liq taqiqlash bo'yicha qaror qabul qildi, bu sanoatni qiymat zanjirida yuqoriga ko'tarilishga majbur etdi [18]. Natijada, to'qimachilik ishlab chiqarishi 2017–2024-yillarda besh barobar o'sdi, eksport esa to'rt barobar oshdi.

GIZ hisobotiga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston to'qimachilik va kiyim-kechak eksporti 3,9 milliard AQSh dollariga yetgan [19]. Tayyor mahsulotlar eksporti 2019-yildagi 400 million dollardan 2023-yilda 1,5 milliard dollarga o'sgan. Ushbu o'sish asosida investitsiyalarning samarali boshqarilishi yotadi: sanoatga 3,2 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb qilingan bo'lib, ularning deyarli barchasi xususiy kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan (1-jadval) [20].


1-jadval. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining asosiy ko'rsatkichlari (2017-2024)¹

Ko'rsatkich	2017	2020	2023	2024
Ishlab chiqarish (mlrd. AQSH dollari)	2,0	5,5	8,2	9,5
Eksport (mlrd. AQSH dollari)	0,006	2,0	3,1	3,9
Korxonalar soni	2000	4500	6000	6500
Bandlik (ming kishi)	300	450	570	600
Klasterlar soni	-	97	142	142

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sishni namoyish etgan. Klaster tizimining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi: 142 ta klaster mamlakatning to'qimachilik ishlab chiqarishining 100 foizini ta'minlaydi [20]. 2023-yilda paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishi tufayli 23 000 dan ortiq yangi ish o'рни yaratilgan [19].

Investitsion loyihalarni boshqarish metodologiyasining takomillashtirilishi bir qator tashkiliy va iqtisodiy omillarni hisobga olishni talab etadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni boshqarishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Model oltita asosiy komponentni o'z ichiga oladi: strategik rejalashtirish, resurs taqsimoti, risk boshqaruvi, sifat nazorati, moliyaviy tahlil hamda monitoring va baholash (1-rasm).

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, 2024 [3]; GIZ hisoboti, 2024 [19]; bne IntelliNews, 2024 [20].

1-rasm. To'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni boshqarish konseptual modeli²

Ushbu komponentlar integratsiyalashgan tarzda ishlaydi va investitsion loyihaning barcha bosqichlarida qo'llaniladi. Modelning pastki qismida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (NPV, IRR, PI, PP) joylashgan bo'lib, ular loyiha samaradorligini miqdoriy baholash uchun xizmat qiladi.

Davlat tomonidan to'qimachilik sanoatiga ko'rsatilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash investitsion loyihalar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. 2023-yilning boshida turli to'qimachilik loyihalari uchun 50 million dollar ajratilgan, dastlabki mablag' o'zlashtirilgandan so'ng qo'shimcha 100 million dollar ajratish rejalashtirilgan [4]. Mato, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarni aylanma mablag' bilan uzluksiz ta'minlash uchun davlat tomonidan 200 million dollar ajratilgan (2-jadval) [21].

2-jadval. To'qimachilik sanoatida investitsion loyihalar samaradorligini baholash mezonlari³

Ko'rsatkich	Tavsif	Samaradorlik mezon
NPV	Sof joriy qiymat — kelajakdagi pul oqimlarining diskontlangan qiymati	$NPV > 0$
IRR	Ichki rentabellik darajasi — $NPV = 0$ bo'lgan diskont stavkasi	$IRR > r$
PI	Rentabellik indeksi — har bir investitsiya birligi uchun yaratilgan qiymat	$PI > 1$
PP	Qoplash muddati — investitsiyaning o'zini qoplash vaqti	$PP < standart$

To'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni boshqarishning tashkiliy jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish korxonalarida loyihalar ko'pincha umumiy resurslardan foydalanadi, bu loyiha menejeri va funksional bo'limlar rahbarlari o'rtasida doimiy muzokaralarni talab etadi [22]. Zamonaviy tashkiliy strukturalarning "yengil va tekis" modelga o'tishi loyiha boshqaruvining yangi paradigmasini talab etadi.

O'zbekiston hukumati to'qimachilik sanoatiga investitsiyalarni jalb qilish uchun bir qator imtiyozlar joriy etgan. 10 million dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilgan korxonalar 7 yil davomida bir qator soliqlardan (korporativ daromad solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar) ozod qilingan [18]. Bunday siyosat investitsion loyihalarning moliyaviy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Jahon bozorida barqarorlik (sustainability) tobora muhim omilga aylanmoqda. 2024–2025-yillarda Yevropa Ittifoqi to'qimachilik mahsulotlari uchun yangi regulatsiyalarni joriy etdi, bu kuzatilishi (traceability), ta'mirlanishi va qayta ishlangan tarkib bo'yicha yangi standartlarni belgilaydi [23]. O'zbekiston korxonalari uchun xalqaro sertifikatlar olish muhim ahamiyatga ega: 2024-yilda Better Cotton Initiative standartlari bo'yicha 50 000 gektar maydon sertifikatlangan [24].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi yetti yil davomida sezilarli o'sishni namoyish etgan va bu o'sishda investitsion siyosatning samarali amalga oshirilishi muhim rol o'ynagan. Biroq, investitsion loyihalarni boshqarish metodologiyasi yanada takomillashtirish imkoniyatlariga ega.

Birinchi, to'qimachilik korxonalarida PMBOK metodologiyasining oltita asosiy tamoyilini (yaxlit yondashuv, qiymatga e'tibor, sifatni ta'minlash, mas'uliyatli rahbarlik, barqarorlikni integratsiya qilish va vakolatli jamoalar) izchil joriy etish tavsiya etiladi. Bu loyiha boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi.

² Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

³ Manba: Corporate Finance Institute [9, 11]; ScienceDirect [12] asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Ikkinchidan, investitsion loyihalar samaradorligini baholashda bir nechta ko'rsatkichlar (NPV, IRR, PI, PP) kompleksidan foydalanish zarur. Har bir ko'rsatkich o'ziga xos ma'lumot beradi: NPV umumiy daromadlilikni, IRR nisbiy samaradorlikni, PI kapital samaradorligini, PP esa likvidlik va riskni aks ettiradi.

Uchinchidan, to'qimachilik sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, gibrid loyiha boshqaruvi yondashuvlarini qo'llash maqsadga muvofiq. An'anaviy "sharshara" (waterfall) metodologiyasi rejalashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari uchun, agile yondashuvlar esa bozor talablariga tez moslashishni talab etuvchi loyihalar uchun mos keladi.

To'rtinchidan, korxona darajasida loyiha boshqaruvi ofisi (PMO) tashkil etish tavsiya etiladi. PMO loyihalar portfelini strategik maqsadlarga moslash, resurslarni optimal taqsimlash va standartlashtirilgan amaliyotlarni joriy etish imkonini beradi.

Beshinchidan, xalqaro barqarorlik standartlariga (Better Cotton Initiative, organic sertifikatsiya) muvofiqlikni ta'minlash investitsion loyihalar rejalashtirish bosqichida e'tiborga olinishi lozim. Bu Yevropa Ittifoqi va AQSh bozorlariga kirishni osonlashtiradi hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi.

Oltinchidan, kadrlar malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish zarur. Loyiha boshqaruvi bo'yicha xalqaro sertifikatlar (PMP, PRINCE2) olishni rag'batlantirish sanoatda professional boshqaruv madaniyatini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish tashkiliy va iqtisodiy omillarni integratsiyalashgan holda ko'rib chiqishni talab etadi. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining 2028-yilga borib 7 milliard dollarlik eksportga erishish maqsadini [24] amalga oshirish samarali investitsion loyiha boshqaruviga bevosita bog'liq. Ishlab chiqilgan konseptual model va amaliy takliflar ushbu maqsadga erishishda muhim hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Expert Market Research. Textile Market Size, Share, Analysis & YoY Growth, 2034. URL: <https://www.expertmarketresearch.com/reports/textile-market>
2. Grand View Research. Textile Market Size, Share, Analysis & Growth Report, 2033. URL: <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. To'qimachilik sanoatida eksport va investitsiyalarni oshirish bo'yicha videokonferensiya. 2024-yil 16-aprel. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7168>
4. Daryo News. Uzbekistan's textile exports reach \$3.1bn in 2023. 2024. URL: <https://daryo.uz/en/2024/04/16/uzbekistans-textile-exports-reach-31bn-in-2023>
5. Interfax. Uzbekistan makes textile products for \$8.2 bln, boosts textile exports in 2023. 2024. URL: <https://interfax.com/newsroom/top-stories/101511/>
6. Project Management Institute. PMBOK Guide. URL: <https://www.pmi.org/standards/pmbok>
7. Wikipedia. Project Management Body of Knowledge. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Project_Management_Body_of_Knowledge
8. Wrike. What Is PMBOK in Project Management? URL: <https://www.wrike.com/project-management-guide/faq/what-is-pmbok-in-project-management/>
9. Corporate Finance Institute. Capital Planning Metrics: NPV, IRR, and Profitability Index. URL: <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/valuation/capital-planning-metrics-guide/>
10. Financial Modeling Prep. Capital Budgeting Techniques: NPV, IRR, and More. URL: <https://site.financialmodelingprep.com/education/other/Capital-Budgeting-Techniques-NPV-IRR-and-More--A-Comprehensive-Guide>
11. Corporate Finance Institute. NPV vs IRR — Overview, Similarities and Differences. URL: <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/valuation/npv-vs-irr/>
12. ScienceDirect. NPV, IRR, PI, PP, and DPP: A unified view. 2024. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0304406824000545>
13. Textile Blog. Project Management in Textile and Apparel Industry. 2025. URL: <https://www.textileblog.com/project-management-in-textile-and-apparel-industry/>
14. University of Chicago Professional Education. Economies Run on Projects. URL: <https://professional.uchicago.edu/stories/project-management-strategy-essentials/economies-run-projects>
15. World Bulletin of Management and Law. Investment Management in Strategic Development of Textile Enterprises. URL: <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/download/4387/3726/7932>
16. Fin-Wiser. How to Calculate NPV and IRR: A Step-by-Step Guide. 2025. URL: <https://fin-wiser.com/2025/02/26/how-to-calculate-npv-and-irr-a-step-by-step-guide-with-real-examples/>
17. Stratex Online. Payback Period vs Net Present Value for Project Evaluation. 2025. URL: <https://www.stratexonline.com/blog/payback-period-vs-net-present-value-why-you-need-both/>
18. Uzbekistan Textile and Garment Industry Association. Investment potential. URL: <https://uzts.uz/en/to-investors/investment-potential/>
19. UzDaily. Uzbekistan's textile sector: A Giant in the making. GIZ Report, 2024. URL: <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-textile-sector-a-giant-in-the-making/>
20. bne IntelliNews. Uzbekistan's textile sector booming, ready for the next phase. 2024. URL: <https://www.intellinews.com/uzbekistan-s-textile-sector-booming-ready-for-the-next-phase-342489/>



21. Daryo News. Uzbekistan's textile exports reach over \$500 mn in first 2M 2024. URL: <https://daryo.uz/en/2024/03/25/uzbekistans-textile-exports-reach-over-500-mn-in-first-2m-2024>
22. PMI. Implementing Project Management in Manufacturing Industries. URL: <https://www.pmi.org/learning/library/implementing-pm-manufacturing-industries-4885>
23. Fulgar S.p.A. 2025 textile industry review and trends. URL: <https://www.fulgar.com/en/feature/294/a-look-at-20242025-performance-review-and-trends-in-the-textile-industry>
24. USDA Foreign Agricultural Service. Cotton and Products Update — Uzbekistan. 2024. URL: https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/Report/DownloadReportByFileName?fileName=Cotton+and+Products+Update_Tashkent_Uzbekistan
25. Textile World. ITMF: International Forum For The Global Textile Industry. 2024. URL: <https://www.textileworld.com/textile-world/2024/07/itmfi-international-forum-for-the-global-textile-industry/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100